

The Practical Significance of Developing Students' Intellectual and Creative Abilities through English Language Teaching

Haydarova Nozigul Bahrom qizi

English Language Teacher Zarafshan

City Technical School No. 2

nozigulkhaydarova@gmail.com

Abstract. This article describes the goals and objectives of experimental work on improving the intellectual and creative abilities of students based on the English language.

Keywords: Theoretical, intellectual, creative, systematic, integrative, research, decomposition, relevance, consistency, connection, correlation.

Ingliz tili fani asosida o'quvchilardagi intellektual va ijodiy qobiliyatni shakllantirishning amaliy ahamiyati

Haydarova Nozigul Bahrom qizi

Zarafshon shahar 2-son texnikumi

ingliz tili fani o'qituvchisi

nozigulkhaydarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning ingliz tili fani asosida intellektual va ijodiy qobiliyatni takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Nazariy, intellektual, ijodiy, tizimlilik, integrativ, tadqiqot, dekompozitsiya, aloqadorlik, izchillik, bog'liqlik, o'zaro mutanosiblik.

Аннотация. В данной статье описываются цели и задачи экспериментальной работы по совершенствованию интеллектуальных и творческих способностей учащихся на основе английского языка.

Ключевые слова: Теоретический, интеллектуальный, творческий, системный, интегративный, исследование, декомпозиция, релевантность, согласованность, связь, корреляция.


Pedagogika fan tarmog'iga oid tadqiqotlar, shartli ravishda ikki qismdan iborat bo'ladi:

- Nazariy qism va ilgari surilgan ilmiy gipotezaning to'g'riligini tasdiqlash uchun o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari. Nazariy qismda tanlangan muammoning umumiy asoslari, yetakchi tamoyillari, tayanch tushunchalari, yaxlit jarayonning dialektik va dinamik xususiyatlari, yechimni topishda asosiy ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy subyektlar, ularning jarayondagi o'rni va roli, bosqichlar rivojiga ta'siri, asosiy maqsadi, unga erishish yo'lida hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar mohiyati, kutiladigan natija, natijaga erishishni kafolatlovchi shartlar va omillar, metod va yo'llar, erishilgan natijaning samaradorlik ko'rsatkichlar yoritiladi.

- Amaliy tajriba esa tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy farazning to'g'riligini tajriba-sinovdan o'tkazish jarayoni, muammo nazariy bayonining amaliyotda, pedagogik tajribadagi in'ikosi hisoblanib, unda ishning nazariy qismida ilgari surilgan ustuvor g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llari, sinov uchun tavsiya etilgan dastur hamda yetakchi tamoyillarning bayoni, tajribada foydalaniladigan metodika mazmuni, ko'p bosqichli sinov ishlarining umumiy va xususiy maqsadi, ularga erishish borasida bajarilgan amaliy-pedagogik vazifalar, kutiladigan natija, sinov ishlarining turli bosqichlarida qo'lga kiritilgan natijalar, ularning umumlashmasi, o'zaro qiyosiy tahlili, shuningdek, farq ko'rsatkichlari, asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba natijalarining matematik-statistik tahlili masalalari yoritiladi.

Nazariy qism va amaliy tajriba o‘zaro bir-biri bilan g‘oyaviy jihatdan adekvat¹ munosabatda bo‘lishi lozim. Ilmiy tadqiqot sifati va samaradorligini ta‘minlashda bu ikki qismning o‘zaro bog‘liqligi, muvofiqligi, aloqadorligi va izchilligining ta‘minlanishiga e‘tibor qaratish zarur. Mazkur talabning to‘laqonli ta‘minlanishi tadqiqotning pedagogik va amaliy-metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilinishini ta‘minlaydi.

Tadqiqot ishida nazariy qism va amaliy tajribaning o‘zaro munosabati, komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha ta‘minlanishi talab etiladi (3.1rasm).



¹ **Adekvat** (lotincha *adaequatus* — tenglashgan, mos, aynan bir, o‘xshash) — bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning ob‘yektiv mazmuniga to‘g‘ri keladigan, aniq va mos qilib olish. Inson [ong](#) job‘ektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi (qarang [Haqiqat](#))^[1]. Asosan Adekvatlik ma‘nosini boshqalarning fikrini ham inobatga olish, o‘zini har doim haq bilmaslik iboralari ham bildiradi.



3.1-rasm. Tadqiqotning nazariy qismi va amaliy tajribasning o`zaro munosabati. Umuman olganda, tadqiqotning nazariy qismi tadqiqot uchun asos qilib olingan muammo va uni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy faoliyat mazmunini belgilaydi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlaria esa mazkur ilmiy farazning to`g`ri ekanligi amaliyotda tajribadan o`tkaziladi va natijalar matematik-statistik jihatdan tahlil qilinadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi quyidagi shartlarga bevosita bog`liq:

- 1) ishtirokchilarning tajriba-sinov jarayonida qo`llaniladigan innovatsiyalarga tayyorgarligi;
- 2) ishtirokchilarning motivatsiyasini oshirish;
- 3) ilmiy-nazariy va uslubiy ta`minotning mavjudligi;
- 4) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- 5) innovatsiyalarning mazmun-mohiyatining anglanishi;
- 6) ijodiy, tizimli va innovatsion yondashuvning mavjudligi.

Rus tadqiqotchisi E.V.Litvinenko pedagogik tajriba-sinov ishlarini boshqarish samaradorligi tadqiq qilishda quyidagi yondashuv tamoyillarini taklif etadi (3.2-rasm)

№	Tamoyillar	Tamoyillar mazmuni
1	Tizimlilik	Boshqaruv sifatini tizimli yondashuv asosida ko‘rib chiqish
2	Integrativlik	Sifat tushunchasini ifodalashda turli xil fanlar bo‘yicha bilimlarni qo‘llash va fanlararo o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olish
3	Dekompozitsiya	Boshqaruv samaradorligi va sifatini faqat uni tashkil etuvchi qismlarga ajratgan holda ko‘rib chiqish mumkin, bu turli xil asoslarga ko‘ra boshqaruv sifatining iyerarxik strukturasi shakllantirishni nazarda tutadi
4	Interfaollik	Sifatni baholash va tahlil qilishda baholashning evristik metodlaridan foydalanish, tahliliy baholash metodlarini qo‘llashni nazarda tutadi
5	Ko‘po‘lchamlilik	Sifat va samaradorlikni tashkil etuvchilarning turli xil xususiyatlari va murakkab strukturasi baholashning har xil ko‘rsatkichlari va mezonlaridan foydalanishni nazarda tutadi

²Литвиненко Э.В. Подходы к определению качество управления образовательным учреждением с позиции квалиметрии // Управление качеством образования. Сб. матер. Науч. Сесси ФПК и ППРО МПГУ. –М.: МПГУ, 2001. -145 с.

3.2-rasm. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini boshqarish samaradorligi tadqiq qilish tamoyillari

Tadqiqot ishimizning pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish va boshqarishda sifat va samaradorlikka erishish nuqtai nazaridan mazkur tamoyillarga tayandik. Tadqiqotning ilmiy farazidan ko‘zlangan samaradorlikni biz shartli ravishda quyida turlarga ajratdik:

1) maqsadli samaradorlik: tajriba guruhining salohiyati, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarning belgilangan maqsadlarga mos kelishi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini boshqarish faoliyatining maqsadli samaradorligini baholashda tajriba guruhlarini o‘qituvchisi belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi omillar, sabablar, vositalar va usullarni baholaydi;

2) ijtimoiy-psixologik samaradorlik: tajriba guruhidagi ma’naviy-psixologik muhit tavsifi, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojining qondirilishi, ta’lim va tarbiya jarayoni qatnashchilarining ushbu jarayondan qoniqish hosil qilishini nazarda tutadi;

3) ta’minot samaradorligi: dars mashg‘ulotida fan bo‘yicha asosiy va yordamchi ta’lim vositalari bilan erishilayotgan natijalarning qiyosiy baholanish tavsifini ifodalaydi. Mazkur samaradorlikda moddiy ta’minot sifatida o‘qitishning texnik, asosiy va yordamchi vositalari, nomoddiy ta’minot sifatida esa o‘qituvchi va o‘quvchilarning sifat va miqdoriy tarkibi nazarda tutilgan;

4) texnologik samaradorlik: pedagogik tajriba-sinov ishlari boshqaruvidagi asosiy funksiyalarning o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilish, pedagogik tajriba-sinov ishlari boshqaruv strukturasi bilan o‘quvchilari nutqiy savodxonligini rivojlantirishning maqsad va vazifalari bilan mos kelish darajasini ifodalaydi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

2. Отабоева, М. Р. Chet tilini o`qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017.

3. Литвиненко Э.В. Подходы к определению качество управления образовательным учреждением с позиции квалиметрии // Управление качеством образования. Сб. матер. Науч. Сесси ФПК и ППРО МПГУ. –М.: МПГУ, 2001. -145 с.

4.N.Q. Xatamova, M.N.mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo`llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo`llanma), Navoiy, 2006